



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№9



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 89 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Postdan xaridgacha: influenser va ilg'or veb-ilova (PWA – progressive web app)ning chakana sotuvga real ta'siri	14
Abdulaziz Madjidov	
Ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishda ta'lim klasterlarining roli	22
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
Korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda marketingning tovar strategiyasidan foydalanish holati.....	29
Xidirov Sherzod Olimovich	
O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni institutsionallashtirish: NFIS, Finlit.uz va ta'lim islohotlari	34
Irgashev Anvar Farxodovich	
Moslashuvchan menejment tizimlarini yashil iqtisodiyotga integratsiyalash tasnifi	39
Umarov Bezxod Batirovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	43
Sheraliev Axror Sodiqovich	
O'zbekiston Respublikasida moliyaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning tendensiyalari, undan samarali foydalanish imkoniyatlari va konseptual jihatlari	48
Roziqov Behzod Bahrom o'g'li	
Metallurgiya korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish chet el tajribasi	54
Abdullayeva Matluba Nematovna	
Исследование связи между восприятием изменения климата и внедрением устойчивых методов ведения сельского хозяйства в Узбекистане	59
Светлана Ражабова, Бахром Миркасимов	
Surxondaryo viloyati qishloq xo'jalik tarmog'ini barqaror rivojlantirishni iqtisodiy-ekologik modellari	68
Abdug'aniyev Otabek Allajonovich, Xo'jamqulov Bekzod Turdaliyevich	
Milliy iqtisodiyotda real sektor salmog'i va uning o'zgarish tendensiyalari	75
Mambetjanov Qahramon Qurbandurdievich, Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi	



MILLIY IQTISODIYOTDA REAL SEKTOR SALMOG' I VA UNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI



Mambetjanov Qahramon Qurbandurdievich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston
Milliy universiteti
"Iqtisodiyot" fakulteti i.f.d., professori.

Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
"Iqtisodiyot" fakulteti tayanch doktoranti
ORCID ID: 0009-0002-3713-5286
E-mail: isroilovamuhabbat9897@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada 2010–2024-yillar davomida olingan statistik ma'lumotlar asosida O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotida real sektorning tutgan o'rni va uning tarkibiy tuzilmasidagi o'zgarish tendensiyalari chuqur tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi hamda xizmatlar sohasining yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) salmog'i, ularning o'zaro nisbatlaridagi dinamik o'zgarishlar va makroiqtisodiy muvozanatga ko'rsatgan ta'siri statistik, iqtisodiy-matematik hamda grafik usullar asosida yoritilgan. Maqolada real sektorning diversifikatsiyalashuvi, modernizatsiya jarayonlari, tashqi savdo va investitsiya oqimlariga nisbatan sezuvchanligi alohida o'rganilgan. Shuningdek, sohalar bo'yicha o'sish sur'atlariga ta'sir etuvchi omillar aniqlanib, milliy iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta'minlashda real sektorning ustuvor yo'nalishlari asoslab berilgan. Ilmiy tahlillar asosida real sektorni yanada rivojlantirish bo'yicha konseptual taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: milliy iqtisodiyot, real sektor, yalpi ichki mahsulot, sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi, xizmatlar sohasi, iqtisodiy o'sish, strukturaviy o'zgarishlar, makroiqtisodiy barqarorlik, investitsiya siyosati, modernizatsiya, diversifikatsiya, eksport salohiyati, iqtisodiy siyosat, iqtisodiy tahlil.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the role of the real sector in the national economy of the Republic of Uzbekistan and the trends in its structural transformation based on statistical data from 2010 to 2024. The study examines the share of industry, construction, agriculture, and the service sector in the gross domestic product (GDP), their dynamic interrelations, and their impact on macroeconomic balance using statistical, economic-mathematical, and graphical methods. The article explores the diversification and modernization of the real sector, as well as its sensitivity to foreign trade and investment flows. Additionally, it identifies key factors influencing the growth rates of each sector and substantiates the priority directions of the real sector in ensuring national economic stability and competitiveness. Conceptual proposals and recommendations for the further development of the real sector are presented based on scientific analysis.

Key words: National economy, real sector, gross domestic product, industry, construction, agriculture, services sector, economic growth, structural changes, macroeconomic stability, investment policy, modernization, diversification, export potential, economic policy, economic analysis.



Аннотация: В данной статье проведён глубокий анализ роли реального сектора в национальной экономике Республики Узбекистан и тенденций его структурных изменений на основе статистических данных за 2010–2024 годы. В рамках исследования рассматриваются доля промышленности, строительства, сельского хозяйства и сферы услуг в валовом внутреннем продукте (ВВП), динамика их взаимосвязей и влияние на макроэкономическое равновесие с использованием статистических, экономико-математических и графических методов. Особое внимание уделено процессам диверсификации и модернизации реального сектора, а также его чувствительности к внешней торговле и инвестиционным потокам. Также выявлены факторы, влияющие на темпы роста по отраслям, и обоснованы приоритетные направления развития реального сектора для обеспечения экономической стабильности и конкурентоспособности страны. На основе научного анализа разработаны концептуальные предложения и рекомендации по дальнейшему развитию реального сектора.

Ключевые слова: Национальная экономика, реальный сектор, валовой внутренний продукт, промышленность, строительство, сельское хозяйство, сфера услуг, экономический рост, структурные изменения, макроэкономическая стабильность, инвестиционная политика, модернизация, диверсификация, экспортный потенциал, экономическая политика, экономический анализ.

KIRISH

Iqtisodiyot va uning alohida tarmoqlarining investitsion faolligi yalpi talabning va kelajakda milliy ishlab chiqarish hajmi hamda bandlik darajasining muhim indikatorlari hisoblanadi. Biroq, investitsion jarayonlarni jadallashtirish uchun iqtisodiyot va uning individual tarmoqlarida amaldagi iqtisodiy holatni aniq anglash zarur. Investorlar har doim investitsiya qilinayotgan obyektning salohiyati va kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini hisobga oladilar. Iqtisodiyotda real sektorning investitsion jozibadorligi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, o'ziga xos xususiyatlarga ega.

O'zbekistondagi real sektorning bugungi holatini ilmiy tahlil qilishda bir nechta asosiy omillar va taraqqiyot jihatlari hisobga olish muhimdir. Real sektor asosan iqtisodiyotning ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyati bilan bog'liq sohalarni qamrab oladi — xususan qishloq xo'jaligi, sanoat, qurilish, transport va aloqa. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida real sektorni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar natijasida uning iqtisodiyotdagi ulushi izchil oshib bormoqda. Industrializatsiya jarayonlari, infratuzilmalarni takomillashtirish, mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash hamda investitsion faollikni kuchaytirish orqali real sektor tarmoqlari keng ko'lamli o'sishni aks ettirmoqda.

Bundan tashqari, real sektorning tuzilmasi, tarmoqlararo nisbatlari va uning yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) salmog'i yillar davomida sezilarli o'zgarishlarga duch kelmoqda. Ushbu tendensiyalarni aniqlash, tahlil qilish va iqtisodiy jarayonlarga ularning ta'sirini baholash — mamlakat iqtisodiyotining kelgusi rivojlanish istiqbollarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi PF-158-son Farmoni: ("O'zbekiston — 2030" strategiyasini sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida) iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash yo'nalishida real sektorni qo'llab-quvvatlash va ushbu jabhalarda investitsiya faolligini oshirishga alohida urg'u beradi.¹

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Real sektorning milliy iqtisodiyotdagi roli va uning rivojlanish tendensiyalari masalasi jahon iqtisodiy adabiyotida keng o'rganilgan mavzulardan biri hisoblanadi. Xususan, J. M. Keynes, P. Samuelson, M. Fridman kabi klassik va neoklassik iqtisodiy maktab vakillari o'z asarlarida ishlab chiqarish salohiyati, sanoat siyosatining ustuvorligi hamda xizmatlar sektoridagi kengayish jarayonlarini iqtisodiy o'sishning asosiy omillari sifatida ko'rsatib o'tganlar.

Milliy iqtisodiyotlarda real sektorning ahamiyatiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar, ayniqsa transformatsiya jarayonlarini boshdan kechirayotgan mamlakatlarda, asosan uning tarkibiy tuzilishi, tarmoqlar o'rtasidagi nisbatlar, investitsiya oqimlari va yalpi ichki mahsulotga (YaIM) ta'siri nuqtai nazaridan tahlil qilinmoqda. BMT, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) va Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro tashkilotlar ham real sektorning barqaror rivojlanishini ta'minlashdagi o'rni bo'yicha keng qamrovli hisobot va tavsiyalarni muntazam e'lon qilib kelmoqda.

O'zbekistonda ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar orasida Sh. X. Ziyoevning "O'zbekistonda sanoat va xizmatlar sektorining YaIMdagi o'rni: 2010–2022-yillar", "Real sektorda diversifikatsiya: qurilish va qishloq xo'jaligining iqtisodiy salmog'idagi o'zgarishlar", Q. A. Abdurahmonovning "Iqtisodiy barqarorlikka xizmatlar sektori ta'siri: O'zbekiston misolida", "Modernizatsiya jarayonlari va ixtisoslashuv: amaliy tajribalar",

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son. <https://lex.uz/docs/-6600413?ON-DATE=12.09.2023%2000>



U. X. Qudratovning “Investitsiya siyosati va real sektor: qurilish sohasi namunalari”, “Sanoat tarmoqlarining YalMga hissasi: struktura va o‘zaro ta’sir”, Z. M. Hamidovanning “Qishloq xo‘jaligining eksport salohiyati va YalMga hissasi”, “Real sektorda resurslar samaradorligini tahlil qilish: O‘zbekiston tajribasi” kabi asarlari, shuningdek, boshqa mahalliy iqtisodchilarning ilmiy ishlari alohida o‘rin tutadi. Mazkur tadqiqotlarda real sektor tarmoqlarining yalpi mahsulotdagi ulushi, eksport imkoniyatlari, resurslardan samarali foydalanish hamda tarkibiy o‘zgarishlarning iqtisodiy barqarorlikka ta’siri chuqur o‘rganilgan.

Shu bilan birga, amaldagi strategik dasturlarda, xususan, “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da real sektorni raqobatbardosh va innovatsion iqtisodiyot sari yo‘naltirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Yuqoridagi manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, real sektor bo‘yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar yetarli darajada olib borilgan bo‘lsa-da, uning 2010–2024-yillar davomida yuz bergan rivojlanish dinamikasi, tarkibiy o‘zgarishlari va iqtisodiy siyosat bilan o‘zaro bog‘liqligi masalalari bo‘yicha kompleks yondashuv asosidagi tahlillarga ehtiyoj mavjud. Mazkur maqola aynan shu ehtiyojdan kelib chiqib, mavzuga yangi ilmiy yondashuvni taklif etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqolada milliy iqtisodiyotda real sektorning egallagan o‘rni hamda uning 2010–2024-yillar davomida kuzatilgan dinamik o‘zgarishlari kompleks tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy iqtisodiy tahlil yondashuvlari asosida shakllantirilib, quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

1. Tarixiy-tahliliy metod – real sektorga kiruvchi tarmoqlarning (sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohasi) rivojlanish tendensiyalari uzoq muddatli vaqt qatorida o‘rganilib, ularning YalMdagi salmog‘i tarixiy nuqta nazardan tahlil qilindi.

2. Deskriptiv statistik tahlil – Davlat statistika qo‘mitasi, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Jahon banki va boshqa ishonchli manbalardan olingan ma’lumotlar asosida real sektor ko‘rsatkichlarining mutlaq va nisbiy dinamikasi hisoblab chiqildi.

3. Korrelyatsion va regressiya tahlili – real sektordagi tarmoqlarning iqtisodiy o‘shishga ta’sir darajasini aniqlash maqsadida ko‘p omilli regressiya modellari tuzildi va natijalar iqtisodiy jihatdan izohlandi.

4. Tendension (trend) tahlil usuli – 2010–2024-yillar mobaynida real sektor ko‘rsatkichlarida kuzatilgan o‘zgarishlar asosida prognozlash imkonini beruvchi trend modellari ishlab chiqildi.

5. Grafik-analitik usullar – iqtisodiy ko‘rsatkichlarning vizual tavsifini ta’minlash maqsadida diagramma va infografik vizualizatsiyalardan foydalanildi.

6. Ekspert baholash usuli – sohaga oid mutaxassislar va iqtisodchi olimlarning fikrlariga tayangan holda muammolar tahlili va takliflar ilmiy asosda shakllantirildi.

Mazkur maqolaning ilmiy qimmati shundan iboratki, unda real sektorning milliy iqtisodiyotdagi tarkibiy salmog‘i, yalpi ichki mahsulotga ta’siri, tarmoqlararo munosabatlar va investitsiya oqimlari bilan bog‘liq tendensiyalar kompleks baholangan. Shu asosda iqtisodiy siyosatni takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston real sektor tarmoqlari, asosan, sanoatning qayta tiklanishi, qishloq xo‘jaligining modernizatsiya qilinishi, infratuzilmaning rivojlantirilishi va raqamlashtirishga yo‘naltirilgan islohotlar orqali iqtisodiy o‘shishni ta’minlamoqda. Shu bilan birga, ekologik omillar va investitsiya muhiti asosida barqaror rivojlanishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida iqtisodiyotning real sektorida yaratilayotgan mahsulot va xizmatlarning yillik hajmi muntazam ravishda ortib borayotgani kuzatilmoqda (1-jadval).

1-jadval. Reall sektor tarmoqlarida yaratilgan mahsulot va xizmatlarning yillik hajmi (mlrd so‘m) [1]

Tarmoqlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Sanoat	38,1	47,6	57,6	70,6	84,0	97,6	111,9	148,8	235,3	322,5	368,7	456,1	553,3	659,0
Qishloq xo‘jaligi	30,9	45,3	55,8	66,4	81,8	99,6	115,6	148,2	187,4	216,3	250,3	303,4	345,2	405,4
Qurilish	8,2	9,5	11,8	15,2	20,1	25,4	29,4	34,7	51,1	71,2	88,1	107,5	130,8	150,8
Aloqa	2,1	2,7	3,2	3,7	4,5	5,2	6,3	8,2	10,3	10,9	13,9	17,8	24,5	35,3
Transport	10,5	13,6	16,5	20,6	23,8	26,8	30,6	36,2	44,2	54,5	53,7	67,2	84,0	108,1



Jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, qishloq xo'jaligida yaratilgan mahsulotlarning 2010–2023-yillar oralig'ida yilma-yil o'sish tendensiyasiga ega ekanligini kuzatish mumkin. Xuddi shuningdek, real sektorning boshqa tarmoqlarida ham yaratilgan mahsulot va xizmatlar hajmi izchil ortib borganini ko'rish mumkin. Bunda eng yuqori hajm sanoat sohasida yaratilgan bo'lib, undan keyingi o'rinda qishloq xo'jaligi tarmog'idagi mahsulot va xizmatlar yetakchilik qilmoqda. Transport xizmatlari hajmida ham so'nggi yillarda sezilarli o'sish qayd etilgan bo'lsa-da, aloqa xizmatlari hajmi nisbatan sustroq sur'atda ortmoqda.

Aloqa tarmog'ining sekin rivojlanishiga bir nechta omillar sabab bo'lishi mumkin:

1. Texnologik muammolar – aloqa tarmoqlarida texnologiyalarni doimiy ravishda yangilab borish talab etiladi. Yangi standartlarni joriy etish yoki keng ko'lamli texnologik muammolar mavjud tizimlarning jadallik bilan rivojlanishini sekinlashtirishi mumkin.

2. Infratuzilma yetishmasligi – samarali aloqa tizimlari uchun kengaytirilgan infratuzilma zarur. Agar mavjud infratuzilma yetarli bo'lmasa yoki yuklamalarni qamrab olish imkoniyatlari cheklangan bo'lsa, tarmoqning rivojlanishi sekinlashadi.

3. Foydalanuvchi talabi va ommalashuv darajasi – yangi aloqa tizimlari va xizmatlariga bo'lgan talab ayrim hududlarda past bo'lishi mumkin. Agar aholining katta qismi eski usullardan foydalanishda davom etsa yoki yangi texnologiyalar keng ommalashmagan bo'lsa, bu ham o'sish sur'atining sekinlashishiga olib keladi.

4. Ekologik va iqtisodiy omillar – resurslar tanqisligi va iqtisodiy vaziyatlar aloqa tarmoqlarini modernizatsiya qilish hamda kengaytirishda qo'shimcha qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Yuqoridagi omillardan biri yoki bir nechtasi aloqa xizmatlari hajmining boshqa tarmoqlarga nisbatan sustroq o'sishiga sabab bo'lganini ko'rsatadi.

Shuningdek, pastdagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, milliy iqtisodiyotning real sektor tarmoqlarida yaratilgan mahsulot va xizmatlarning aholi jon boshiga o'sish sur'ati 2010–2023-yillar kesimida ifodalangan. Jumladan, qishloq xo'jaligi tarmog'ida o'rtacha yillik o'sish sur'ati 4,6 foiz, sanoatda 5,8 foiz, qurilish tarmog'ida 11,5 foiz, aloqa xizmatlarida 23,2 foiz, transport xizmatlari tarmog'ida esa 7,4 foizni tashkil etgan. Bu raqamlar real sektorning milliy iqtisodiyotdagi izchil va diversifikatsiyalangan o'sish tendensiyalarini yaqqol ko'rsatib bermoqda (2-jadval).

2-jadval. Real sektor tarmoqlarida yaratilgan mahsulot va xizmatlarning yillik o'sish sur'ati (foizda) [2]

Yil	Sanoat	Qishloq xo'jaligi	Qurilish	Aloqa	Transport
2010	105.9	106.3	105.1	130.5	109.8
2011	104.4	106.2	107.8	141.4	112.5
2012	105.7	107.2	113.7	123.6	109.4
2013	107.5	106.6	117.2	121.2	108.0
2014	104.5	106.3	117.6	127.6	104.6
2015	105.3	106.1	118.8	116.0	104.3
2016	105.4	106.3	107.2	114.6	107.8
2017	105.2	101.0	106.0	121.3	109.9
2018	110.8	100.2	114.3	115.9	104.5
2019	105.0	103.3	122.9	108.3	106.7
2020	100.9	102.7	109.5	123.8	91.4
2021	108.8	103.9	106.8	126.4	115.7
2022	105.3	103.6	106.6	128.8	111.8
2023	106.3	104.0	107.0	125.4	107.2

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar real sektor tarmoqlarining (sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, aloqa va transport) 2010-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrdagi yillik o'sish sur'atlarini foizda ifodalaydi. Bu ma'lumotlarga ilmiy asoslangan holda quyidagi umumiy tendensiyalarni ko'rish mumkin: barcha tarmoqlar aksariyat yillarda ijobiy o'sish sur'atlarini ko'rsatgan, bu esa O'zbekiston iqtisodiyotida ishlab chiqarish va xizmatlar hajmining kengayib borayotganidan dalolat beradi. Har bir tarmoqning o'sish sur'ati yilma-yil farq qilib turgan, bu esa ularning iqtisodiy sharoitlar, investitsiyalar, innovatsiyalar va boshqa omillarga turlicha ta'sirchanligini ko'rsatadi.

Jadval ma'lumotlarini tarmoqlar kesimida tahlil qilganimizda:

1. Sanoat tarmog'ining o'sish sur'atlari nisbatan barqaror bo'lib, 2018-yilda sezilarli o'sish kuzatilgan (110,8%). Bu, ehtimol, ishlab chiqarish quvvatlarining modernizatsiyasi, yangi texnologiyalarning joriy etilishi va eksport bozorlarining kengayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. 2020-yilda o'sish sur'atining pasayishi (100,9%) COVID-19 pandemiyasining ta'siri bilan izohlanadi.



2. Qishloq xo'jaligi tarmog'ida o'sish sur'atlari nisbatan past va barqaror bo'lgan. 2017-yilda o'sish sur'atining pasayishi (101%) ob-havo sharoitlarining noqulay kelishi yoki boshqa tashqi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. 2018-yilda ham o'sish sur'ati past bo'lgan (100,2%).

3. Qurilish tarmog'i yuqori o'sish sur'atlarini namoyon etgan, ayniqsa 2013–2019-yillar oralig'ida. Bu davrda qurilishga investitsiyalarning ko'payishi, infratuzilma loyihalarining amalga oshirilishi va uy-joy qurilishining faollashuvi kuzatilgan. 2020-yilda o'sish sur'atining pasayishi (109,5%) pandemiya bilan bog'liq cheklovlar va iqtisodiy noaniqliklar bilan izohlanadi.


4. Aloqa tarmog'i eng yuqori o'sish sur'atlarini ko'rsatgan. Bu axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, internet va mobil aloqa xizmatlariga talabning ortishi hamda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan izohlanadi.

5. Transport tarmog'ining o'sish sur'atlari nisbatan o'zgaruvchan bo'lgan. 2020-yilda keskin pasayish (91,4%) COVID-19 pandemiyasi davrida transport harakatining cheklanishi, turizmning kamayishi va iqtisodiy faollikning pasayishi bilan bog'liq. 2021-yilda o'sish sur'ati qayta tiklangan (115,7%)ini ko'rish mumkin.

O'sish sur'atlaridagi farqlar iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar yuz berayotganini ko'rsatadi, bunda yuqori texnologiyali va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining ulushi ortib bormoqda. Aloqa tarmog'ining yuqori o'sishi innovatsiyalar va texnologik taraqqiyotning iqtisodiy o'sishdagi muhim rolini tasdiqlaydi. Ushbu jadvaldagi ma'lumotlar O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalarini va har bir tarmoqning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Bu ma'lumotlar iqtisodiy siyosatni shakllantirish, investitsiyalarni yo'naltirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston sanoati so'nggi yillarda sezilarli darajada o'sdi. Buning asosiy sabablari: davlat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, jumladan, xususiylashtirish, liberallashtirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, xorijiy va mahalliy investitsiyalarning sanoatga jalb qilinishi, yangi korxonalarining ochilishi va mavjudlarining modernizatsiya qilinishi, zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirdi va yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish imkonini berdi. Sanoat klasterlarining tashkil etilishi va rivojlantirilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirdi hamda qo'shimcha qiymat yaratdi.

Yuqoridagi omillar ta'sirini quyidagi grafikda o'sish tendensiyasi orqali ko'rish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish yillik hajmi (mlrd so'mda) [3]

2010–2023-yillarda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi yilma-yil ortib borgan. 2020-yilda 368 740,2 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 658 991,7 mlrd so'mni tashkil etib, deyarli ikki barobarga oshgan. Ishlab chiqarishning ko'p tarmoqli va yetarli darajada diversifikatsiyalangan tuzilmasi sanoatning o'sish dinamikasiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatgan. Ishlab chiqarish sohasining deyarli barcha yo'nalishlarida ijobiy natijalar qayd etilgan. Bu esa yil yakunlari bo'yicha respublika eksport tushumlari tarkibida sanoatning yuqori ulushi tufayli umumiy hajmning ortganidan dalolat beradi.

O'zbekistonda sanoat mahsuloti hajmining o'sishiga davlatning oqilona iqtisodiy siyosati, texnologik taraqqiyot, inson kapitaliga kiritilgan investitsiyalar va tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi sanoatning yanada yuqori sur'atlarda o'sishini ta'minlagan. Kelgusida ham ushbu omillarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish sanoatning barqaror o'sishi hamda iqtisodiyotning diversifikatsiyasi uchun muhim hisoblanadi.



Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kelgusida O'zbekiston sanoatining yanada rivojlanishi uchun investitsiyalarni jalb qilish, sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnologik taraqqiyotga e'tibor qaratish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, malakali kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish, eksportni diversifikatsiya qilish va jahon bozorlariga chiqishni kengaytirish, qulay biznes muhitini yaratish hamda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Reall sektorning keyingi eng yirik tarmoqlaridan biri hisoblangan qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirish iqtisodiyotning muhim va strategik yo'nalishidir. Ushbu tarmoq aholining farovonligini ta'minlash va barqaror iqtisodiy taraqqiyotni kafolatlashga xizmat qiladi. Real sektorning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qishloq xo'jaligi aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish va mamlakat iqtisodiyotiga munosib hissa qo'shish kabi muhim vazifalarni bajaradi.

Quyidagi jadvalda qishloq xo'jaligida yaratilgan mahsulotlarning 2010–2023-yillar kesimidagi yillik o'sish sur'atlari aks ettirilgan (3-jadval).

3-jadval. Qishloq xo'jaligi tarmoqlari mahsulotlarining umumiy hajmining yillik o'sish sur'ati (foizda) [4]

Yil	Dehqonchilik mahsulotlari	Chorvachilik mahsuloti	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari
2010	105.9	106.9	106.3	106.0
2011	104.9	108.0	106.2	106.3
2012	107.1	107.4	107.2	106.9
2013	106.1	107.3	106.6	106.5
2014	105.9	106.7	106.3	106.1
2015	105.5	106.9	106.1	106.1
2016	105.7	107.0	106.3	106.1
2017	98.2	104.1	101.0	101.2
2018	95.8	105.7	100.2	100.3
2019	104.8	101.6	103.3	103.1
2020	103.2	102.1	102.7	102.9
2021	104.3	103.5	103.9	104.0
2022	103.8	103.3	103.6	103.6
